

**“Kelajak” markazlarining umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi
o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maktab
maslahatchisi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Kelajak” markazlari faoliyatini yo'lga qo'yishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 10-dekabrdagi 776-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, “Kelajak” markazlarining umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maktab maslahatchisi faoliyatini tartibga soladi.

I bob. Umumiy qoidalar

1. “Kelajak” markazlarining umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maktab maslahatchisi lavozimi (keyingi o'rinlarda – maktab maslahatchisi) “Kelajak” markazining maqsad va vazifalarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshiradigan, bolalarni qo'shimcha ta'limga jalb etadigan vertikal tuzilma hisoblanadi.

2. Maktab maslahatchisi faoliyati “Kelajak” markazining tegishli tuman (shahar) markazi va umumiy o'rta ta'lim muassasa direktori tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

3. Maktab maslahatchisi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kelajak” markazining ustavi hamda ta'lim muassasasi faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiradi.

II bob. Maktab maslahatchisining asosiy vazifalari va funksiyalari

4. Quyidagilar Maktab maslahatchisining asosiy vazifalari hisoblanadi:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturi mazmunini yoritish, unda nazarda tutilgan g'oya va maqsadlarni o'quvchilar o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Kelajak” markazlarining tarmoq to'garaklari faoliyatini tizimli tashkil etish;

o'quvchilarni tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish;

o'quvchilarda yetakchilik qobiliyati, tashabbuskorlik va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida turli loyihalar, klublar, debatlar hamda "O'quvchilar kengashi" faoliyatini yo'lga qo'yish;

madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologik yo'nalishlardagi loyihalarni tashkil etish, ular orqali o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda tabiatni muhofaza qilishga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;

o'quvchilarning maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga jalb etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini tizimli ravishda shakllantirish va yuritish.

5. Maktab maslahatchisi asosiy vazifalarni amalga oshirishda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi va oliy ta'lim muassasalariga kirish istaklarini aniqlash maqsadida so'rovnomalar o'tkazadi;

a) "Mening kelajakdagi kasbim" dasturi asosida 7-9-sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlari va iqtidorlarini aniqlab, ularni akademik ta'lim yoki kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etadi.

o'quvchilarga videoroliklar namoyishi, korxonalarga ekskursiyaga olib borish va kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali kasblar haqida to'liq (batafsil) ma'lumotlar berish;

umumiy o'rta ta'lim muassasa psixologi bilan birgalikda 7-sinfdan boshlab o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va temperamenti asosida kasbga qiziqishini aniqlash;

- o'quvchilarning kasbga qiziqishiga oid ma'lumotlar asosida har bir o'quvchi uchun shaxsiy kasbga yo'naltirish tavsiyasi ishlab chiqish hamda bu masala o'quvchilarning ota-onasi bilan muhokama qilish.

b) O'quvchilarni mamlakatimiz va xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishiga ko'maklashadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablardagi maktab maslahatchilari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

ular bilan hamkorlikda "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dastur ishtirokchilari uchun sinov (MOCK) imtihonlarini o'tkazadi;

oliy ta'lim muassasalariga kirish istagini bildirgan o'quvchilarni fan o'qituvchilariga biriktiradi;

bolalarda liderlik qobiliyatlari hamda yumshoq ko'nikmalarini (soft skills) shakllantirishda "O'quvchilar kengashi" saylovlarini o'tkazadi va ularning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ravishda seminar, treninglar tashkil etadi;

"O'quvchilar kengashi" a'zolari, faol o'quvchilar hamda to'garak rahbarlari ishlarini ommalashtiradi hamda tanlov va tadbirlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta'minlaydi;

umumiy o'rta ta'lim muassasasida "Turon teatr", "Iqtidor ansambli", "Jadidlar izidan", "Eco-schools Uzbekistan", "Xorijiy tillar", "Debat" va "Raqamli avlod qizlari" klublarini tashkil etadi;

ish rejasida belgilangan festival, tanlov, musobaqa va tadbirlarni sifatli o'tkazilishi bo'yicha ssenariylar ishlab chiqadi hamda tashkil etadi;

bolalarni ta'lim, media, madaniyat, ekologiya, sport, kitobxonlik yo'nalishlarida tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, ular uchun festival, forum, vebinar hamda oromgohlarda ishtirokini ta'minlaydi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yadi;

to'garak jarayonlarini tahlil qilib boradi hamda ularga amaliy yordam ko'rsatadi;

hududiy "Kelajak" markazi direktorining xulosasi asosida o'quvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli grant loyihalarda ishtirok etadi;

dastur va o'quv-rejalar ishlab chiqishda "Kelajak" markazining tuman (shahar) markazlariga takliflar kiritadi;

"Kelajak" markazining maxsus elektron platformasini yuritadi, unga o'quv jarayoniga oid ma'lumotlarni joylashtiradi;

o'quvchilarning qo'shimcha ta'limga jalb etilganligi to'g'risidagi "Ijtimoiy portfolio" modulini yuritadi.

III-bob. Maktab maslahatchisining huquq va majburiyatlari

6. Maktab maslahatchisining huquqlari quyidagilardan iborat:

belgilangan tartibda menejerlik sertifikatiga o'qish imkoniyatidan foydalanish hamda menejerlik sertifikatining amal qilish muddati davomida lavozim maoshiga tegishli har oylik 30 foiz miqdorida qo'shimcha ustamalar olish;

maktab maslahatchisi umumiy o'rta ta'lim muassasasining pedagogik Kengashi va iqtidorli o'quvchilar masalasiga oid komissiyalarga a'zo sifatida kiritiladi;

umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi to'garaklarda o'qituvchilarning ishtiroki va pedagoglar tomonidan o'quvchilarga nisbatan munosabatni, shuningdek, kutubxona hamda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq faoliyatlar yuzasidan o'rganishlar o'tkazish va tegishli tartibda bildirgi kiritish;

umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi sharoitlardan to'la foydalanish, ish rejasidagi chora-tadbirlarning ta'lim muassasasi tomonidan moliyalashtirilishini talab etish;

o'z faoliyatiga doir ma'lumotlarni tarqatish, targ'ib etish;

maktab maslahatchisi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

7. Maktab maslahatchisining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida", "Pedagog maqomi to'g'risida", "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlari, "Mehnat kodeksi", "Kelajak" markazining ustavi va ta'lim muassasasi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar hamda ikki tomonlama imzolangan mehnat shartnomasi doirasida faoliyat yuritish, ularda belgilangan tartib hamda odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish;

ish faoliyati davomida ommaviy axborot vositalari va turli ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'lim tizimini obro'sizlantiradigan harakatlarga yo'l qo'ymaslik, agarda shunday holat aniqlangan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy chora ko'rilishiga asos bo'ladi;

yuqori turuvchi tashkilotlar, ta'lim muassasasi pedagogik kengashi hamda rahbariyatning tegishli topshiriqlari va ko'rsatmalarini (o'zining belgilangan vazifalari doirasidagi) bajarish;

tegishli tuman (shahar) "Kelajak" markazi hamda umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariga o'z faoliyati to'g'risidagi har oylik axborot va hisobotlarni o'rnatilgan tartibda taqdim etib borish;

belgilangan nomenklatura asosida hujjatlarni yuritish;

o'ziga ajratilgan xona, moddiy-texnik vositalar va mablag'lardan to'g'ri foydalanish;

maktab maslahatchisiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

IV bob. Maktab maslahatchisi faoliyatini tashkil etish tartibi

8. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maktab maslahatchisi lavozimi quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 431-sonli (*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan*) buyrug'iga ko'ra, Maktab maslahatchisi lavozimi o'quvchilar sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda kiritiladi:

300 nafargacha (300 nafar ham) bo'lganda 0,5 birlikda;

301 nafar va undan ortiq bo'lganda 1,0 birlikda tashkil etiladi.

9. Maktab maslahatchisi lavozimiga talabgorlarni tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda - tanlov komissiyasi) mazkur nizomga muvofiq faqatgina hududlarda tashkil etiladi.

hududiy tanlov komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, namunaviy tavsiyanoma 2-ilovaga, maktab maslahatchisini ishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish sxemasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanadi.

hududlardagi tanlov o'tkaziladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari sonidan kelib chiqib mazkur nizomning 4-ilovasi bilan tasdiqlangan maktab maslahatchisi lavozimiga talabgorlarni tanlash bo'yicha namunaviy tarkibda Respublika "Kelajak" markazi direktori tomonidan komissiya a'zolari sonini oshirishga hamda guruhlariga bo'lingan holda tashkil etilishiga ruxsat etiladi.

hududiy "Kelajak" markazi direktori komissiya faoliyatini tashkil etadi va umumiy rahbarlik qiladi.

10. Maktab maslahatchisi lavozimiga oliy (bakalavr) ma'lumotga ega bo'lgan talabgorlar ikki bosqichda ishga qabul qilinadi.

birinchi bosqich — talabgorlarning bilimini test sinovidan o'tkaziladi;

ikkinchi bosqich — talabgorlar bilan suhbat o'tkaziladi.

11. Talabgorlarni hujjatlari quyidagi tartibda qabul qilinadi:

talabgorlar tanlov.uzedu.uz platformasi orqali faqat bitta umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi vakant lavozimiga o'zi haqidagi ma'lumotnoma (obyektivka) va diplomini yuklab, ariza yuboradi;

talabgorlar platforma orqali yuborgan arizasi va tanlov shartlari to'g'risidagi aferta bilan tanishib chiqadi va tasdiqlaydi, talabgor tomonidan tasdiqlangan aferta shartlari o'zgarishsiz qoldiriladi;

agarda talabgor ushbu shartlardan norozi bo'lgan taqdirda yuborgan arizasini shaxsiy profili orqali rad etib, arizalar qabul qilish muddati yakunlangunga qadar qayta ariza yuborishi mumkin;

vakansiyalar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va respublika "Kelajak" markazining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e'lon qilingan kundan e'tiboran 20 (kalendar) kun davomida arizalarni qabul qilinadi;

talabgorning platformadagi shaxsiy kabinetiga test o'tkaziladigan kun haqida xabardor qilinadi;

test sinovlari o'tkaziladigan joy manzillarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Respublika "Kelajak" markazining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e'lon qilib boriladi;

talabgorlarni test sinovlariga kiritish test.uzedu.uz talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Talabgorlarni tanlovdan o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich - talabgorlar Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari Maktab

maslahatchisi lavozimiga nomzodlarni baholash uchun test sinovi spetsifikatsiyasi” talablari asosida saralab olinadi, bunda:

test shaklida bo‘lib, talabgorlar quyidagi tartibda baholanadi:

T/r	Kompetensiyalar	Mazmun sohalar	Savol soni	Ball (har bir to‘g‘ri javob uchun)	Ajrat. vaqt	
1.	Asosiy kompetensiyalar	Tashkiliy-pedagogik va kommunikativ ko‘nikmalar	5	3.1	80 daqiqa	
		O‘quvchini psixologik qo‘llab-quvvatlash va kasbga yo‘naltirish ko‘nikmalari	6			
		Liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalari	4			
		Jami	15	46.5		
2.	Qo‘llab-quvvatlovchi kompetensiyalar	Ta’lim siyosati va davlat tilida hujjat (ish) yuritish ko‘nikmalari	5	2.1		
		Media savodxonlik va axborot madaniyati ko‘nikmalari	4			
		Ingliz tili bo‘yicha ko‘nikmalar	6			
		Jami	15	31.5		
		Jami	30	78 ball		

test sinovi natijasi ga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan 3 (uch) nafar talabgor keyingi bosqichda ishtirok etadi;

talabgorning test sinovidan olgan balli, yakuniy natijaga qo‘shib hisoblanmaydi;

talabgorlarning ballari teng kelib qolgan taqdirda, talabgorlarga keyingi bosqichda ishtirok etish huquqi beriladi;

talabgorning testdan olgan balli uch oy muddatga amal qiladi va shu davr mobaynida qayta tanlov o‘tkazilsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikkinchi bosqich-suhbat jarayonida ishtirok etish huquqini beriladi;

talabgorning testdan olgan balli eng yuqori ball to‘plagan 3 (uch) nafar talabgordan kam bo‘lsa, ikkinchi bosqich-suhbat jarayonida ishtirok etmaydi;

biroq, talabgor tomonidan tanlovga chiqarilgan lavozim uchun tanlov.uzed.uz platformasi orqali qayta ariza yuborish shart etib belgilanadi.

ikkinchi bosqich - suhbat shaklida amalga oshiriladi, bunda:

talabgorning platformadagi shaxsiy kabinetiga suhbat o‘tkaziladigan kun haqida xabardor qilinadi;

talabgorlarga билет tanlash imkoni beriladi. U 5 ta savoldan iborat bo‘ladi, tayyorgarlik uchun 10 daqiqa, savollarga javob berish uchun 15 daqiqa, qo‘shimcha savollar uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi;

suhbat jarayonida har bir topshiriq umumiy baholash rubrikasi asosida 9 ballik tizimda baholanadi;

tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodlarning tegishli ko'nikmalari (*o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va kasbga yo'naltirish, akademik rejalashtirish va oliygohlarga yo'naltirish, loyihalar, treninglar va tarmoq to'garaklarini tashkil etish, sohaga doir istiqboldagi rejalari, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, ijtimoiy-madaniy ko'nikmalari*) umumiy 45 ball bilan baholanadi;

suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan talabgor Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tavsiyanoma beriladi hamda 25.2 va undan yuqori ball to'plagan talabgorlar zaxira nomzod deb topiladi;

navbatdagi yuqori ball to'plagan zaxiradagi nomzodlar orasidan ularning roziligi asosida Tanlov komissiyasi raisining qaroriga muvofiq, boshqa vakant bo'lgan ta'lim muassasasiga tavsiya etilishi mumkin;

ta'lim tili qardosh yoki rus tilida olib boriladigan maktablarga nomzod bo'lgan talabgorlar tegishli tilni mukammal bilishi talab etiladi, talabgorlarning til bilish darajasi qoniqarsiz deb topilgan taqdirda uning mazkur lavozimga tavsiya etilmasligiga asos bo'ladi;

eng yuqori ball to'plagan nomzodlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar "Kelajak" markazlarining tanlov komissiyasi tavsiyanomasi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasa direktori tomonidan ishga qabul qilinadi, bunda:

tanlov komissiyasi tavsiyanomasi berilgandan so'ng talabgorning o'zi shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda, yakuniy ballga ko'ra navbatdagi o'rinni egallagan zahiradagi talabgorga tanlov komissiyasi tavsiyanomasi beriladi;

tegishli tavsiyanomani olgan talabgor uzrli sabablarga (kasalligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, yaqin qarindoshlarining vafoti, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lishi sababli) ko'ra tegishli ta'lim muassasasi rahbarini uch ish kuni ichida ishga qabul qilish yuzasidan ariza taqdim eta olmasa, bu haqida umumiy o'rta ta'lim muassasa direktori hamda tuman (shahar) "Kelajak" markazini yozma shaklda ogohlantirishi shart;

uzrli sabablar bartaraf etilganidan so'ng talabgor ishga qabul qilish bo'yicha 3 kun muddatda tegishli umumiy o'rta ta'lim muassasa direktori nomiga ishga qabul qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi;

tegishli tavsiyanomani olgan talabgor uzrli sabablarsiz 10 kun muddatda tegishli umumiy o'rta ta'lim muassasa direktoriga ishga qabul qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilmagan taqdirda tavsiyanoma bekor bo'ladi va haqiqiy emas deb topiladi.

V bob. Tanlov natijalari yuzasidan apellyatsiya berish

13. Tanlov natijalaridan norozi bo'lgan talabgorlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi vazir o‘rinbosari (komissiya raisi), sohaga mas’ul tarkibiy bo‘linmasi rahbari (komissiya raisi o‘rinbosari), Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi rahbari, Pedagogik mahorat va ilmiy-amaliy baholash markazi direktoridan iborat bo‘ladi;

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga ishchi guruhlar tarkibidan a‘zo kiritilmaydi;

Apellyatsiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish uchun jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin;

Apellyatsiya komissiyasi yig‘ilishida komissiya a‘zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo‘ladi;

Ariza (shikoyat) ro‘yxatga olingan kundan boshlab o‘n kun muddatda ko‘rib chiqiladi;

Apellyatsiya komissiyasi talabgorning tanlov jarayonlariga oid murojaatini ko‘rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

tanlov natijalarini o‘zgartirishsiz qoldirish;

tanlov natijalarini o‘zgartirish;

Apellyatsiya komissiyasi murojaatni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha talabgorga yozma yoki tanlov.uzedu.uz platformasidagi shaxsiy kabineti orqali xabar beradi;

suhat jarayoni videoyozuv orqali qayd etiladi;

“Kelajak” markazlarining tanlov komissiyasi tomonidan berilgan tavsiyanoma maktab maslahatchisi faoliyatini boshlagidan boshlab 3 (uch) o‘quv yili davomida amal qiladi.

tegishli umumiy o‘rta ta’lim muassasasi uchun maktab maslahatchisiga berilgan tavsiyanoma amal qilish muddati davomida respublika “Kelajak” bilan kelishgan xolda boshqa umumiy o‘rta ta’lim maktabida faoliyatini davom ettirishga ruhsat etiladi.

hududiy tanlov komissiyasi qaroriga ko‘ra (zaxiradagi nomzodlar bo‘lmagan taqdirda) talabgorlar ichidan maktab maslahatchisi lavozimiga munosib nomzod topilmagan taqdirda, mazkur lavozim uchun qayta tanlov e‘lon qilinadi.

tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktorlari uchun majburiy hisoblanadi.

maktab maslahatchisi tegishli tuman (shahar) “Kelajak” markazining direktori hamda ta’lim muassasa rahbariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunadi.

VI bob. Maktab maslahatchisi faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash.

14. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktori tomonidan Maktab maslahatchisi faoliyati uchun maktab imkoniyatidan kelib chiqib, alohida xona yoki maktab direktorining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bilan bir xonaga joylashtiriladi va jihozlanadi (1 ta ish stoli va stul, “O‘quvchilar kengashi” a‘zolari

uchun kamida 9 kishiga mo'ljallangan stol va stullar, 2 ta kitob javoni, 1 ta kompyuter jamlanmasi, printer, flipchart) hamda zaruriy kanselyariya buyumlari bilan ta'minlanadi.

15. Maktab maslahatchisining ish rejasida belgilangan chora-tadbirlar umumiy o'rta ta'lim muassasasining ish rejasiga kiritilib, moliyalashtiriladi.

VI bob. Maktab maslahatchisi lavozimi faoliyatini tugatish

16. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va tugatiladi.

17. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

“Kelajak” markazlarining umumiy oʻrta taʼlim
muassasalaridagi oʻquvchilar tashabbuslarini qoʻllab-
quvvatlash boʻyicha Maktab maslahatchisi lavozim
faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisidagi nizomga
1-ILOVA

**Maktab maslahatchisi lavozimiga talabgorlarni
tanlash boʻyicha hududiy tanlov
KOMISSIYA TARKIBI**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	Lavozimiga koʻra	- Hududiy “Kelajak” markazi direktori, <i>komissiya raisi</i>
2.	Lavozimiga koʻra	- Prezident maktabi direktori, <i>aʼzo</i>
3.	Lavozimiga koʻra	- “Direktorlar kengashi” raisi, <i>aʼzo</i>
4.	Lavozimiga koʻra	- Psixolog, <i>aʼzo</i>
5.	Lavozimiga koʻra	- Hududiy “Kelajak” markazi Maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish boʻlimi mudiri, <i>kotib</i>
6.	Lavozimiga koʻra	- Respublika “Kelajak” markazi vakili, <i>kuzatuvchi</i>

Izoh: Komissiya aʼzolari boshqa ishga oʻtgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

“Kelajak” markazlarining umumiy oʻrta
taʼlim muassasalaridagi oʻquvchilar
tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha
Maktab maslahatchisi lavozim faoliyatini
tashkil etish toʻgʻrisidagi nizomga
2-ILOVA



**MAKTAB MASLAHATCHISI LAVOZIMIGA TALABGORLARNI
TANLASH BOʻYICHA TANLOV KOMISSIYASINING**

TAVSIYANOMASI

F.I.SH.

(Respublika, viloyat, tuman (shahar) nomi)

(taʼlim muassasasi raqami va nomi)

“Kelajak” markazining umumiy oʻrta taʼlim muassasasidagi

MAKTAB MASLAHATCHISI

lavozimiga munosib deb topilganligi uchun berildi.

TANLOV komissiyasining qarori	Hujjat imzolangan sana	Tavsiyanoma raqami	Talabgorning shaxsiy kodi
0001-son	26.06.2026	QQR - 00000001	MM-42103883110044

Birinchi bosqich boʻyicha bilim darajasini baholash natijasi	Ikkinchi bosqich boʻyicha bilim darajasini baholash natijasi	Jami toʻplangan ball
70	40	110

Berilgan sana	26.06.2026	Amal qilish muddati	25.06.2029
---------------	------------	---------------------	------------

Tavsiyanomani imzolagan shaxs	R.Karimov	QR-kodli imzo
-------------------------------	-----------	---------------

“Kelajak” markazlarining umumiy oʻrta
taʼlim muassasalaridagi oʻquvchilar
tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha
Maktab maslahatchisi lavozim faoliyatini
tashkil etish toʻgʻrisidagi nizomga
3-ILOVA

**Maktab maslahatchisini ishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish
SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
Ikkinchi bosqich suhbat jarayonidan soʻng			
1-bosqich	Respublika “Kelajak” markazi	Tavsiyanomani koʻrib chiqib, tasdiqlaydi	Yetti ish kuni
2-bosqich	Talabgor	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori nomiga ishga kirish uchun ariza yozadi	Uch ish kuni
3-bosqich	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori	Buyruqni rasmiylashtirib, xulosa olish uchun tegishli Adliya organining E-huquqshunos dasturiga yuboradi	Uch ish kuni
4-bosqich	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori	Xulosadan kelib chiqib, buyruq bilan tanishtirib, ishga qabul qiladi	Ikki ish kuni
Lavozimdan ozod etilgandan soʻng			
5-bosqich	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktori	Vakant boʻlgan lavozim haqida buyruqni hududiy “Kelajak” markaziga yuboradi	Ikki ish kuni

“Kelajak” markazlarining umumiy o‘rta
ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar
tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha
Maktab maslahatchisi lavozim faoliyatini
tashkil etish to‘g‘risidagi nizomga
4-ILOVA

**Maktab maslahatchisi lavozimiga talabgorlarni
tanlash bo‘yicha na’munaviy
TARKIB**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1.	Lavozimiga ko‘ra	- Tuman (shahar) “Kelajak” markazi direktori, <i>komissiya raisi</i>
2.	Lavozimiga ko‘ra	- Tuman (shahar) Ixtisoslashtirilgan maktab direktori, <i>a‘zo</i>
3.	Lavozimiga ko‘ra	- Maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha bosh mutaxassis, <i>kotib</i>

Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.